



Reg № - 05/04

« 01 » « May » 2024 y.

IMTIHONLARGA APPELYATSIYA BERISH HAQIDA MA'LUMOT

Apellyatsiya tartibi quyidagicha:

Test sinovlari natijasidan norozi bo'lgan abituriyentlar 21-avgustdan 30-avgustgacha (belgilangan ish vaqtiga muvofiq) apellyatsiya komissiyasiga apellyatsiya shikoyatini berish huquqiga ega;

Nizomda apellyatsiya shikoyatlari yozma yoki elektron shaklda berilishi aytilgan. Ammo elektron ariza berishning tartibi yo'q, faqat yozma (qog'ozda) qabul qilishadi. Shuni abituriyentlarning shaxsiy kabineti yoki DTM sayti orqali yo'lga qo'yish shunchalar qiyinmi?

- abituriyent xabarnomada belgilangan kunda o'zining pasporti va abituriyent ruxsatnomasi bilan kelishi shart;

- abituriyentga uning javoblar varaqasi nusxasi, test topshiriqlari noto'g'ri bajarilgan javoblar ro'yxati hamda test topshiriqlari kitobi beriladi;

- abituriyent o'zining har bir noto'g'ri deb hisoblangan test topshirig'iga javoblarini yozma ravishda bayon qiladi va apellyatsiya komissiyasiga taqdim etadi;

- apellyatsiya shikoyati faqat abituriyent ishtirokida, uning yozma javoblari asosida ko'rib chiqiladi. Ilgari ota-onasi yoki ustozlariga ruxsat berilardi, keyinchalik buni taqiqlab qo'yishdi;

- abituriyentning yozma javoblari o'z tasdig'ini topmagan bo'lsa, shikoyatni rad etish to'g'risida qaror qabul qilinadi;

abituriyent murojaat qilganda unga qarordan ko'chirma beriladi;

- abituriyentning javoblar varaqasi, test topshiriqlari kitobi DTMga belgilangan tartibda yetkazilmagan, yirtilgan bo'lsa, shuningdek, test sinovlaridan chetlashtirilgan yoki o'zining javoblarini yozma ravishda bayon qilmagan abituriyentning apellyatsiya shikoyati ko'rib chiqilmaydi.

Azizbek Umarov

Ofis registratori xizmatlari
bo'limi bosh mutaxassisi